

## 2020 - yil 23 - oktabr kuni Moskvalik professor bilan hamkorlikdagi vebinar

2020 - yil 23 - oktabr kuni Moskva davlat Yer tuzish universiteti "Yer tuzish" fakulteti dekani, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan yer tuzuvchi, iqtisod fanlari doktori, professor Papaskiri Timur Valikovich ishtirokida "Yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari va xorijiy tajribalar" mavzusida vebinar tashkil etildi.



Mazkur vebinarida "Yer resurslarini boshqarish" fakultetining 4-kurs talabalari, professor-o'qituvchilar, shuningdek, "O'zdaverloyiha" ilmiy-loyihalash institutining mutaxassislari, TIQXMMI qoshidagi Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tarmoq markazi tinglovchilari ishtirok etishdi. Professor T.V.Papaskiri so'z avvalida institut rahbariyatiga salom yo'llar ekan, institutimiz bilan Moskva davlat yer tuzish universiteti o'rtasida ko'p yillik samarali hamkorliklar amalga oshirib kelinayotganini ta'kidladi. Bundan keyin institut bilan hamkorlik va aloqalarimiz yanada kengayishiga hamda bu boradagi kelishuvlarni birgalikda amalga oshirishga ishonch bildirdi. T.V.Papaskiri o'z ma'ruzasida Rossiyaning yer tuzish sohasidagi tajribalari, yer tuzish jarayonida qo'llanilayotgan yangi innovatsion texnologiyalar va dasturiy ta'minotlar, raqamli plan-kartografik materiallarni tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida tinglovchilarga ma'lumot berdi.



Vebinarida professor-o'qituvchilar, talaba va mutaxassislar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi hamda ular bilan fikr almashdilar. Ma'ruza so'ngida professor T.V. Papaskiri barchaga o'zining samimiy tilaklarini bildirdi hamda bitiruvchi talabalarni Moskva davlat yer tuzish universitetida magistraturada o'qishga taklif qildi.

**"Yerdan foydalanish" kafedrasini mudiri A.Babajanov axboroti**

**Institut matbuot xizmati**